

Abdulla Qahhor hikoyalaridagi frazeologizmlarning lingvokulturologik jihati.

Boymatova Dilnoza, o'qituvchi,
Avazova Sitora, talaba
Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy uslubga xos matnlar misolida, frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan. Iboralarning lingvokulturologik masalalari misollar, xususan, badiiy asarlar misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, ma'no, til, madaniyat, badiiylik, lingvokulturologiya.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются лингвокультурологические особенности фразеологизмов с использованием, характерных для художественного стиля. Лингвокультурологические вопросы фразеологизмов анализировались на примерах литературных произведений.

Ключевые слова. Фразеологизм, смысл, язык, культура, художественность, лингвокультурология.

RESUMES. This article illustrates the linguoculturological features of phraseologies on the example of texts specific to the artistic style. Linguocultural issues of expressions have been analyzed in examples, particularly in the case of works of art.

Keywords: phraseology, meaning, language, culture, art, linguoculturalism.

Xalqlar paydo bo'lgan vaqtlardan buyon necha ming yillar o'tdi. Tarixiy o'rganishlar natijasida har bir xalqning kelib chiqishi, ijtimoiy hayoti, madaniyati o'rganildi. Biz yozma manbalar orqali nafaqat xalqlarning tili, balki o'sha xalqning madaniyatini, qadriyatlarini ham yanada chuqurroq o'rganib bordik. Biz qaysidir millat tilini o'rganish orqali o'sha millatning xulq-atvori, hayotida erishgan

yutuqlaridan xabardor bo‘lamiz. Qadimdan ko‘pchilik tilshunoslar (V.fon. Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf, A. Potebnya)ning farazlaricha til bu madaniyatni o‘zida aks ettiruvchi omildir. Til va madaniyat bir-birini taqazo etuvchi bir butun ajralmas qism ekanligi haqida ham qarashlar mavjud.

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va bu muammoning yechimini topishga qaratilgan dastlabki urinishlar V.Gumboldt asarlarida kuzatiladi.

U yaratgan ta’limotining asosiy xulosalari quyidagilar :

1. Moddiy va ma’naviy madaniyat tilda o‘z aksini topadi;
2. Har qanday madaniyat uning milliy tilida namoyon bo‘ladi.

Gumboldtning qarashlariga tayangan holda ko‘plab olimlar til va madaniyatni birgalikda tilshunoslikning yangi sohasi bo‘lgan lingvokulturologiyaga asos solishdi. Lingvokulturologiya tog‘risidagi bilimlar yaqin XXI asrga kelib o‘zbek lingvistikasida o‘rganila boshlandi. Bugungacha bu soha bilimlarini dastlab Amerika olimlari o‘rganganligi va bu soha har bir xalqning tili va madaniyatini birgalikda o‘rganishda o‘z aksini topadi.

N.F.Alefirenko lingvokulturologiya fani haqida “Lingvokulturologiya — dunyoning etnik-lingvistik qiyofasi bilan bog‘liq muammolarning turli tomonlarini, dunyo qiyofasini tilning madaniy-kognitiv xususiyatlarining lingvistik yaratilishini o‘rganadi ” [2;14].

Ushbu tilshunoslik sohasi, ya’ni lingvokulturologiyaning predmeti tilning bebaho ma’naviyat manbasi hisoblanadi. Lingvokulturologiya turli aspektli masalalarni, jumladan, olamning entotil manzarasini tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan olam obrazi sifatida til va madaniy makon xususiyatlarini o‘rganadi. Uning predmeti tildagi madaniyat asoslarini izohlashning o‘ziga xos mahsuli “ lingvokulterema “ deb ataladi [3;33].

Bugungi kunga kelib lingvokulturologiya fani jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Bunga asosiy sabab hozirgi davr olimlari xalqning qadim tarixdan shakllanib kelgan bugungi kundagi milliy tilimizning shakllanish jarayonidagi milliy qadriyatlarini, milliy an’analari, xalqimiz turmush tarzida mavjud bo‘lgan urf-odatlarini va ma’rifatini ham til nuqtayi nazaridan, ham madaniyat nuqtayi

nazaridan o'rganishni asosiy vazifa qilib olmoqda. Chunki har bir xalqning madaniyati uning tilida aks etadi. V.V.Vorobyov, V.N. Telisa, V.A.Maslova va boshqa ko'plab olimlar ilmiy ishlar olib bormoqda, D.U. Ashurova, Sh.S.Safarov, O'.Q.Yusupov va M.R.Galiyeva kabi tilshunoslar bu soha bo'yicha ilmiy maqolalar e'lon qilgan. O'zDJTU tilshunosi M.R.Galiyeva lingvokulturologiya tog'risida yozgan maqolasida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Lingvokulturologiya vazifasiga quyidagilar o'rganish kiradi:

- 1.Madaniyatning aks etishida tilning rolini aniqlash;
- 2.Milliy-madaniy bo'yoqdor til birliklarini aniqlash va tahlil etish;
- 3.Madaniy konseptlarning tildagi verballashuv usullarini aniqlash"[4;235].

Ta'kidlash joizki, madaniyatni har bir xalq, millat, jamiyat,soha,shaxsning o'zi yaratadi.Madaniyat ham til singari odamning dunyoqarashini, fikrini o'zida aks ettiradi. Sepir ta'kidlaganidek: "Til bu madaniyatni ilmiy o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yo'l ko'rsatkichidir".

Til vositalari, ya'ni frazeologizmlar orqali bir millatning ezgu o'ylarini, ijtimoiy hayotini, olamning manzarasini yoritish mumkin. Shu o'rinda, avvalo, frazeologizm nima ekanligiga oydinlik kiritib olishimiz lozimdir.

Frazeologik birlik – leksik jihatdan bo'linmaydigan, tarkibi va tuzilishiga ko'ra turg'un, yaxlit ma'noli, tayyor nutq birligi, nutqqa tayyor holda kiritiladigan leksik birlik [5;60].

Frazeologizmlar tashkil etilishiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi [6.7.8.].

Frazeologizmlar odatda insonning lisoniy ongidagi fikrni chiroyli dalillar bilan yoritadi va xoh u tinglovchi bo'lsin, xoh u kitobxon bo'lsin lisoniy tafakkuriga oddiy jumalardan-da tez muhrlanadi. Agar biror kitobni o'qish jarayoniga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak yoki nutqimizga e'tibor bersak, biz bu birliklardan unumli foydalanishimizni ko'rishimiz mumkin. Frazeologizmlar

odatda u yoki bu tilning insoniy munosabatlarning ko‘z ilg‘amas jihatlarini, rang-barangligini o‘zida aks ettiradi.

Tilshunos A.Mamatovning ilmiy izlanishlarida quyidagi jummalarni shu jihatdan ko‘rishimiz mumkin: “Frazeologizmlarda ya’ni bu yerda ham baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafratlanish, qiziqish, xavotir; bu yerda insonning to‘g‘ri so‘zligi, iroda kuchi, halollik, oliyanoblik, aql va chanqoqlik harakatchanlik, qaysarlik, ham axmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik – ya’ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu yerda o‘xshashlik va farq boshlanish va tugash (ibtido va intiho) ko‘plik, o‘zlik va shunga o‘xshash tushunchalarni tavsifi ifoda etiladi va shu orqali bizga olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi.

Frazeologizmlarning ifoda jihatlarini deb, ularning asli qanday lisoniy birliklardan tarkib topgani tushuniladi [9;420].

Ular mazmunan bir so‘zga, so‘z birikmasiga yoki gapga ham teng kelishi mumkin. Quyida ularni Abdulla Qahhor hikoyalarida qo‘llanishi orqali o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan lingvokulturologik ma’nomlarni ko‘rib chiqamiz. Masalan, *Uyda tovush chiqarmaslik uchun Marg‘uba tishini tishiga qo‘ygan sayin Javlon haddidan oshaverdi (“Muhabbat”)*. Ushbu gapda berilgan *tishini tishiga qo‘ymoq* iborasi birgina (*chidamoq*) so‘ziga teng keladi. Quyidagi frazeologizm qatnashgan gaplarda ham lingvokulturologik xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin:

Salimjon yo‘lda biroz hovuridan tushganday bo‘lgan edi, uyga kelib yana jazavasi qo‘zidi. Bu keltirilgan gapda ***jazavasi qo‘zimoq*** iborasi orqali (g‘azablanmoq) qattiq jahli chiqqanlik ma’nosini ifodalab kelyapti.

Muborakxonim birpas dami ichiga tushib ketdi-yu, Hakimjonga yopishdi (“Muhabbat” hikoyasidan). Ushbu gapda esa ***dami ichiga tushmoq*** iborasi badiiylik bilan (qo‘rqmoq) ma’nosini ifodalab kelyapti.

Agar Muhayyo Anvarga ko‘ngil qo‘ysa, boshini osmonga yetkazgan bo‘ladi. Ushbu gapda ikkita iborani ko‘rishimiz mumkin, albatta, bu iborani qo‘llash yozuvchining badiiy mahoratiga bog‘liq. Abdulla Qahhor (sevmoq) so‘zini ***ko‘ngil qo‘ymoq*** iborasi orqali ifodalab o‘zbek xalqiga xos ibo-hayo bilan tasvirlagan. Endi keyingi qo‘llangan iboraga e’tiborimizni qaratamiz: ***boshi***

osmonga yetmoq (xursand) ma'nosini oddiy usulda qo'llab ma'noni kitobxon ongida oydin va ravshan ochib bergan. Ushbu gaplardagi iboralar bir so'zga teng kelgan:

Kishining yuragini qon qilib yuborasan! – dedi anchadan keyin, - nainki men asal olsam! Ushbu keltirilgan misolga e'tiborimizni qaratsak **yurakni qon qilib yubormoq** orqali bizga yozuvchi (qiynab yuborganlik) ma'nolarini ifodalab kelgan.

Demak, bir xalqning madaniyati o'rganish davomida uning barcha milliy an'analarini, tarixini va xarakter jihatlarini o'rganishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent: Noshir, 2019. – 168 b.
2. Алефиренко.Н.Ф. Лингвокультуроология. Ценностно-смысловое пространство языка [Электронный ресурс]. учеб. пособие. – 5-е.изд. стер. – М. ФЛИНТА. 2016. – 288 с.
3. Polvonova, S. Frazeologik birliklarining lingvokulturologik aspekti.
4. Galiyeva M.R. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. VI kitob. O'zbek lingvomadaniyatida diniy dunyo tasvirining verballashuvi. B. 234 – 236.
5. Хамитов Р.А. Диссертация. Стилистические пласты лексикологии и фразеологии русского языка. Магистрлик иши. 2021. — 77 с.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva H., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent — 2009.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili (darslik) Toshkent : Universitet, 2006 — B. 418
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.- 1978.